

PATOLOGIK NAFAS TIPLARI

*1-Respublika Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat salomtligi texnikumi 2-Umumkasbiy
modular kafedrası mudiri*

Ubaydullaeva Gulshoda Axmatovna

Annotatsiya: Patologik nafas tiplari bu-Nafas a'zolari holatining buzilishi o'pka harakatchanligining cheklanishi, nafas yo'llari o'tkazuvchanligining buzilishi, o'pkaning o'zida nafas olish sathining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar hisoblanadi. Nafas olish jarayonida hansirash chuqurligi va maromining buzilishi, odatda, havo yetishmasligi bilan kechadi. Nafas yetishmovchiligining fiziologik va patologik xillari tafovut qilinadi. Fiziologik nafas qisishi jismoniy ish qilayotganda organizmning kislorodga ehtiyoji oshishi natijasida paydo bo'ladi. Ushbu kasalliklarga: rinit (tumor), sinusit, laringit, astma, bronxitlar kiradi.

Kalit so'zlar: Patologik nafas tiplari, rinit, tumor, sinusit, laringit, astma, bronxit.

Аннотация: Патологические типы дыхания — это нарушения функций органов дыхания, включающие ограничение подвижности легких, нарушение проходимости дыхательных путей, а также изменения в самих легких, связанные со снижением уровня дыхания. Нарушения глубины и ритма дыхания обычно вызваны нехваткой воздуха. Различают физиологические и патологические типы одышки. Физиологическая одышка возникает в результате повышенной потребности организма в кислороде во время физической активности. К таким заболеваниям относятся: ринит (простуда), синусит, ларингит, астма и бронхит.

Ключевые слова: Патологические заболевания органов дыхания, ринит, грипп, синусит, ларингит, астма, бронхит.

Abstract: Pathological types of breathing are disorders of the respiratory organs, which are associated with a decrease in lung mobility, impaired airway patency, and changes in the lungs themselves. During breathing, the depth and rhythm of breathing are disturbed,

usually due to lack of air. Physiological and pathological types of shortness of breath are distinguished. Physiological shortness of breath occurs as a result of an increased need for oxygen by the body during physical activity. These diseases include: rhinitis (cold), sinusitis, laryngitis, asthma, bronchitis.

Key words: Pathological respiratory diseases, rhinitis, flu, sinusitis, laryngitis, asthma, bronchitis.

Nafas olish organlari kasalliklaridan hayotida kamida bir marta yo'tal, burun oqishi va tomoq og'rishi kabi muammolarga duch kelmagan odam bo'lmasa kerak. Bunday patologiyalar mustaqil bo'lishi yoki boshqa kasalliklar, xususan, yuqumli kasalliklar ortida rivojlanishi mumkin. Nafas a'zolari kasalliklari orasida o'tkir bronxit eng ko'p uchraydigan xastaliklardan biri hisoblanadi. Bu dard ko'pincha faslning sovuq kunlarida, ayniqsa, bahor va kuzda, havo harorati tez-tez o'zgarib turadigan vaqtlarida ayniqsa gripp epidemiyasi vaqtida juda ko'payadi. Shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Sog'liqni Saqlash vazirligida bu sohada statistik aniq ma'lumotlar yo'q. Bu kasallik gripp epidemiyasi boshlanishi bilan juda tez muddatda ko'payib ketishi hamma ma'lum. O'tkir bronxit kasalliklar orasida 2-3 foizni, nafas a'zolari xastaliklari orasida esa 30-40 foizni tashkil etadi. Kelib chiqish sabablari asosan, bronx shilliq pardalari zararlanishi bilan davom etuvchi yallig'lanish hisoblanadi. O'tkir bronxitning kelib chiqishida shamollash yoki sovqotish omiliga kelsak, bu hollarda sovuq ta'sirida organizm shilliq pardalarida qon va limfa almashinuvining yomonlashishi sodir bo'lib, infeksiyaning ko'payishi va ularning faollashuviga qulay shart-sharoitlar yaratiladi. [1]

Burun shilliq pardasining yallig'lanishi – rinit (tumor). Bunda shilliq parda shishadi, burun yo'llari torayadi, goho ularning bekilib qolishi kuzatiladi. Rinitda nafas og'iz orqali olinadi. Havo traxeya va bronxlarga yetarlicha isitilmay va chang zarrachalaridan tozallanmay o'tadi. Rinit o'tkir, surunkali, allergik bo'lishi mumkin. O'tkir rinitda qo'l-oyoqlar qaqshaydi, bosh og'riydi, aksa urish, burun oqishi kuzatiladi. Tez-tez qaytalanib davolanmasa, surunkali rinitga aylanadi. Surunkali rinit vaqti-vaqti bilan qo'zg'ab turadi. Allergik rinit, ko'pincha, bahorda boshlanadi. Uni gul changi, hidi, hayvonlar yungi va

boshqalar keltirib chiqaradi. Bemor 10–15 marta aksa uradi, burni oqadi, ko'zlari qizarib allergik konyuktivit ham qo'shiladi. [2]

Burun atrofidagi bo'shliqlarni yallig'lanishi sinusit deb ataladi. Gaymor bo'shlig'ini yallig'lanishi gaymorit, peshona sinusini – frontit, g'alvirsimon sinusni – etmoidit, ponasimon sinusini – sfenoidit deyiladi. Ko'pincha, gaymorit uchraydi. Bunda burun bitib qoladi, bosh og'riydi, isitma ko'tariladi, rengentda gaymor bo'shlig'ida yiring to'plangani ko'rinadi. [3]

Hiqildoq shilliq pardasini yallig'lanishiga laringit deyiladi. Kasallik, ko'pincha, bolalarda kechasi boshlanadi. Bolani ovozi 265 behosdan yo'qoladi – bu afoniya deyiladi. Shilliq parda shishib, nafas olish qiyinlashadi, bo'g'ilish – asfiksiya yuz beradi. [4]

Yuqori nafas yo'llarida uchrovchi kasalliklardan yana biri bu bronxial astma hisoblanadi. Astma jiddiy yuqumli bo'lmagan kasalliklar sirasiga kiritilgan bo'lib, nafas yo'llarining yallig'lanishi va torayishi bilan tavsiflangan surunkali o'pka xastaligidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tahlillariga ko'ra, 2019 yilda butun dunyoda astma bilan kasallanganlar soni 262 million nafarni tashkil etdi va ulardan 461 ming nafar kishida xastalik o'lim holati bilan yakun topgan. Astmaning eng ko'p uchraydigan simptomlari o'z ichiga quyidagilarni oladi: yo'tal va xirillab nafas olish xurujlari oqibatida nafas olishning qiyinlashishi. Bu hurujlar ayniqsa tunda va erta saharda ro'y beradi. Agar bemor astmaga qarshi davolansa, uning simptomlari tamoman yoki qisman yo'q bo'lishi mumkin. Astma hurujlari allergen moddalar ta'sir qilganda (chang, o'simlik gullari, hayvonlar juni, ayrim oziq-ovqat turlari), jismoniy kuch ishlatilganda, sovuq havodan nafas olganda yoki nafas yo'llariga infeksiya yuqqanda ro'y berishi mumkin. [5]

Foydalingan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – T. 15. – C. 202-206.
2. Ubaydullayev.A.M “NAFAS ORGANLARI KASALLIKLARI” Toshkent “Yangi asr avlodi”-2009

3. A.G'.Ahmedov,G.X. Ziyamutdinova “ANATOMIYA,FIZIOLOGIYA VA PATOLOGIYA” Toshkent uchinchi nashr
4. A.Sh.Xurramov “ODAM ANATOMIYASI VA FIZIOLOGIYASI” Termiz-2021
5. Sagatov.T.A, Mirsharapov.U.M,Shamirzaev.N.H,Axmedov.J.M “ODAM ANATOMIYASI FANIDAN O’QUV USLUBIY MAJMUA” Toshkent-2017